



## PAKISTAN'S REGIONAL SECURITY POLICY: ORGANIZATIONAL AND LEGAL FRAMEWORK

*Muqaddas R. Khojimurodova*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [mkhojimurodova@gmail.com](mailto:mkhojimurodova@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Islamic Republic of Pakistan, Ministry of Foreign Affairs, Regional security policy, The National Security Policy (NSP) 2022-2026, organizational bases, legal frameworks.

**Abstract:** The article describes organizational bases and legal frameworks of the regional security policy of Islamic Republic of Pakistan, problems of shaping foreign policy.

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

## POKISTONNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIK SIYOSATI: TASHKILY-HUQUQIY ASOSLAR

*Muqaddas R. Xojimurodova*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [mkhojimurodova@gmail.com](mailto:mkhojimurodova@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Pokiston Islom Respublikasi, tashqi ishlar vazirligi, mintaqaviy xavfsizlik siyosati, 2022-2026 yillarga moʻljallangan Milliy xavfsizlik siyosati (NSP), tashkiliy asoslar, huquqiy asoslar.

**Annotatsiya:** Maqolada Pokiston Islom Respublikasi mintaqaviy xavfsizlik siyosatining tashkiliy va huquqiy asoslari, tashqi siyosatni shakllantirish masalalari haqida soʻz boradi.

## ПОЛИТИКА РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПАКИСТАНА: ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВАЯ БАЗА

*Мукаддас Р. Хожимуродова*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [mkhojimurodova@gmail.com](mailto:mkhojimurodova@gmail.com)*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Исламская Республика Пакистан, Министерство иностранных дел, Региональная политика безопасности, Национальная политика безопасности на 2022-2026 гг., организационные основы, правовые основы.

**Аннотация:** В статье обсуждаются организационные и правовые основы региональной политики безопасности Исламской Республики Пакистана, а также проблемы формирования внешней политики.

---

**KIRISH**


Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Pokiston Islom Respublikasi uch geosiyosiy mintaqalar kesishmasi (Janubiy, G'arbiy va Markaziy Osiyo)da joylashgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatdir. 2020 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra Pokiston 218 mln.dan ortiq aholisi bilan dunyoda beshinchi o'rinni, musulmon olamida esa Indoneziyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Pokiston yadro quroliga ega bo'lgan to'qqiz davlatning biri va shuningdek, qudratli qurolli kuchlar sohibi hamdir. Shu bilan birga, ushbu davlatga keskin ichki muammolar, radikal islamizm va separatizm, xalqaro terrorizm xavflari tahdid solib kelmoqda. Afg'oniston bilan umumiy chegaralar va mintaqadagi azaliy raqibi Hindiston ham Pokistonning mintaqaviy xavfsizlik siyosatiga ta'sir o'tkazuvchi omil rolini bajaradi. Shunday ekan, ushbu qaynoq mintaqadagi vaziyat va uning bevosita Markaziy Osiyoga tutash ekanligini hisobga olgan holda, Pokistonning mintaqaviy xavfsizlik siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

**ASOSIY QISM**

Pokiston mintaqaviy xavfsizlik siyosati borasida ko'plab G'arb va Sharq, MDH tadqiqotchilari izlanishlar olib borgan. Bunda asosiy e'tibor tashqi siyosatning mazmuni va xalqaro vaziyat uchun ahamiyati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalariga qaratilgan. Tashqi ishlar sohasida qaror qabul qilish mexanizmlari va tashqi siyosiy jarayonning tashkil etilishi masalalari esa kamroq yoritilgan. Jumladan, Luis D.Heys o'zining «Post-modern dunyoda islom davlati» deb nomlangan kitobida Pokistonning siyosiy tajribasi haqida yozadi. Uning Pokistonning davlat boshqaruv tizimi, huquq tizimi va ijro hokimiyati, siyosiy madaniyat va Britaniya imperiyasi merosi borasidagi mulohazalari e'tiborga sazovor. Muallif zamonaviy bosqichga kelib ijro hokimiyati Pokistonning paydo bo'lishidan bugungi kunga qadar bo'lgan siyosiy tajribasiga mos ravishda o'zgarib keldi; qonun chiqaruvchi va yuridik soha marginallasdi, siyosiy partiyalar samarasiz bo'lib bordi. Prezidentlar bosh vazirlarni hokimiyatdan chetlatib, parlamentlarni tarqatib yuborishda davom etdi. Yuridik tizim ma'muriyatning aralashuvi, shuningdek, dunyoviy va islomiy huquq o'rtasidagi hal etilmagan masalalar tufayli takomillasha olmadi. Saylangan hukumat esa armiya va byurokратиyaning qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'lib qoldi, deb fikr bildiradi.

MDH tadqiqotchilaridan Belokreniskiy V.Ya. Pokiston tashqi siyosatining asosiy o‘ziga xosliklari, institutsional va tashkiliy bazasi, tashqi va ichki kuchlarning ta’siriga oid izlanishlar muallifi hisoblanadi. U ushbu mavzuning yoritilganlik darajasiga e’tibor qaratgan holda mintaqaviy tashqi siyosatning tashkiliy-huquqiy asoslarini tushuntirib berishga urinadi.

Mahalliy olimlar esa asosan Pokistonning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan hamkorligi dinamikasi va istiqbollari masalalarida izlanishlar olib borgan. Masalan, Akmalov Sh.I., Yakubov I.X., Nuriddinov U.K. lar ushbu mavzularda mulohaza yuritgan.



1-rasm

Pokiston Tashqi ishlar vazirligining strukturasi

2-rasm



*Symbiotic Relationship Between Traditional and Non-Traditional Security*

**Pokiston Milliy Xavfsizlik Siyosati:****Tahdidlarning o‘zaro bog‘liqligi**

Bugungi kunda Pokistonning mintaqaviy xavfsizlik siyosati tadqiqotchilar uchun dolzarb va qiziqarli mavzu bo‘lib qolmoqda. Chunki Janubiy Osiyo mintaqasi demografik va iqtisodiy jihatdan tez o‘tib borayotgan mintaqaga va turli ijtimoiy, iqtisodiy, milliy-etnik va diniy, shuningdek, xavfsizlik muammolari kompleksi bo‘lib qolmoqda. Pokiston va Hindistonning yadro quroliga egalik qilishi, Afg‘onistonning bu mintaqaga qo‘shni ekanligi, Pokistondagi chuqur ichki siyosiy-iqtisodiy inqiroz va uning ehtimoliy oqibatlari mintaqaviy xavfsizlik siyosatini tadqiq etishning ahamiyatini yanada oshiradi.

**Huquqiy asoslar.** Pokiston Islom Respublikasining tashqi siyosati 1973 yilda qabul qilingan Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi. Dastlab parlament tipidagi qonunlar majmui bo‘lgan konstitutsiya harbiy to‘ntarishlar asnosida ko‘p bora jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. 2002 yildagi saylovdan keyin P.Musharraf asosiy qonunga 17-o‘zgartirishni kiritib, prezidentning vakolatlarini sezilarli kengaytirib berdi. Unga ko‘ra, prezident parlamentni tarqatib yuborish, hukumatni iste’foga chiqarish, davlat va hukumat nomidan chiqish, xalqaro forumlarda, muzokaralarda qatnashish vakolatlariga ega bo‘ldi. Biroq 2010 yilgi 18-o‘zgartirish buni bekor qilib, davlat boshqaruv tizimini parlament respublikasi shakliga qaytardi.

Pokiston Konstitutsiyasining 40-moddasida tashqi siyosatning umumiy prinsiplari bayon qilinib, quyidagilar ta’kidlanadi: davlat musulmon mamlakatlari bilan islom birligiga asoslangan birodarlik aloqalarini mustahkamlaydi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlarining umumiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlaydi, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka hissa qo‘shish, barcha xalqlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini mustahkamlash va xalqaro bahslarni tinch vositalar bilan hal qilish tarafdoridir.

Hozirgi vaqtgacha hukumatda tashqi siyosat, milliy xavfsizlik va mudofaa konsepsiyalari kabi rasmiy hujjatlar qabul qilish amaliyoti yo‘q edi. Ammo 2022 yilning 14 yanvarida ilk bora 2022-2026 yillar uchun milliy xavfsizlik siyosati konsepsiyasi bosh vazir Imron Xon va milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Moid Yusuf so‘zboshisi bilan e’lon qilindi. Ushbu hujjat Pokiston hukumatining geosiyosiy mo‘ljallardan geoiqtisodiy siyosat tomon burilganini ko‘rsatib berdi. Jami 110 sahifadan faqatgina 48 tasi omma e’tiboriga ochiq taqdim etildi, qolgan qismi esa maxfiylik belgisi ostida qoldi. Ushbu siyosatning pirovard maqsadi - iqtisodni rivojlantirish bilan milliy resurslarni ko‘paytirish va bundan mudofaa va xavfsizlik sohasining ham ko‘proq moliyalashtirilishiga erishishdir.

Bundan tashqari, Pokiston birinchi bor xavfsizlikning noan’anaviy tahdidlarini an’anaviy tahdidlar bilan bir qatorda tan oldi. An’anaga ko‘ra, Janubiy Osiyo xavfsizligi arxitekturasi

qattiq kuch tahdidlari, va shu bilan birga, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi yadroviy poygaga diqqatni jamlagan bo'lsa, endilikda xavfsizlik muammosiga quruqlikda, havoda, va dengizdagi yadroviy va harbiy tahdidlar shaklida yondasha boshladi. Noan'anaviy tahdidlar qatoriga esa iqlim o'zgarishlari va pandemiya oqibatlari kiritildi.

**Tashkiliy asoslar.** Pokiston rasmiy xalqaro siyosati tashqi ishlar vaziri rahbarligidagi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan olib boriladi. Ushbu vazirlik hukumat tarkibidagi muhim tuzilmalardan biri bo'lib, Pokiston mustaqillikka erishishi bilanoq 1947 yilning 14 avgustida tashkil qilingan. Vazirlik Pokistonning tashqi siyosati, shu jumladan, mintaqaviy xavfsizlik siyosatini amalga oshirish va xorij davlatlari bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul hisoblanadi. Tashqi ishlar vaziri Pokiston Bosh vaziri tomonidan tayinlanadi.

Tashqi ishlar vaziri lavozimni hozirgi vaqtda Bilaval Ali Zardari egallab turibdi. U sobiq bosh vazir Benazir Bhutto va sobiq prezident Asif Ali Zardarining o'g'li bo'lib, eng yosh tashqi ishlar vaziri o'laroq e'tirof etilgan. Keyingi o'rinda tashqi ishlar bo'yicha davlat vaziri lavozimi turadi, uni Xina Rabbani Xar egallagan. Shuningdek, Xina Rabbani 2011-2013 yillarda tashqi ishlar vaziri etib tayinlangan ilk ayol bo'lgan.

Tashqi ishlar vazirligi apparatini tashqi ishlar bo'yicha kotib boshqaradi. U professional diplomatlar orasidan tanlanadi. Mohiyatan kotib tashqi siyosat sohasidagi ikkinchi shaxs hisoblanib, unga eng murakkab muzokaralarni olib borish vazifalari yuklanadi.

Tashqi ishlar vazirligi to'qqizta boshqarmadan iborat, shundan oltitasi hududiy boshqarmalar va BMT, YeI va IKT kabi xalqaro tashkilot va tuzilmalar bilan aloqalarga javob beruvchi boshqarma hisoblanadi. Shu bilan birga maxsus boshqarma, siyosiy rejalashtirish va ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchi boshqarmalar, protokol boshqarmasi ham mavjud. Hindiston va Millatlar Hamjamiyatiga kiruvchi boshqa davlatlardagi diplomatik vakillar oliy komissar deb nomlanadi. Ushbu lavozim diplomatik iyerarxiyadagi eng muhim post sanaladi. Butun dunyo bo'ylab Pokiston diplomatik vakolatxonalarga ega, ayniqsa, deyarli barcha arab davlatlarida elchilar akkreditatsiya qilingan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Pokiston Isroil bilan diplomatik munosabatlar olib bormaydi.

Tashqi siyosiy kursni shakllantirishga Federal parlament bevosita ta'sir o'tkazib turadi. Majlisi sho'ro (parlament ikki palata - Milliy Assambleya va Senatdan iborat) tashqi va ichki siyosatning alohida masalalari bo'yicha vaqti vaqti bilan yig'ilishlar o'tkazib, faol ravishda muhokamalar olib boradi. Asosan quyi palata tomonidan tashkillashtiriladigan ushbu debatlarida bosh vazir va uning ofisi a'zolari, shu jumladan, tashqi ishlar vaziri ham ishtirok etadi.

Nihoyat qayd etib o'tish kerakki, ushbu respublikaning mintaqaviy xavfsizlik va umuman, tashqi siyosatiga mamlakat armiyasi va yuqori martabali harbiylar, razvedka xizmatlari, siyosiy partiyalar, jamoatchilik kayfiyati, musulmon ulamolari, OAV ham bevosita ta'sir o'tkazib turadi. Pokiston davlati tarixi armiyaning zarur deb hisoblangan paytda vaziyatni o'z qo'liga olishidan guvohlik beradi. Shuningdek, sir emaski, butun dunyoda razvedka xodimlari ham siyosiy rahbariyatning maxsus topshiriqlarini bajarish maqsadida diplomatlar orasiga kiritiladi. Bu borada Pokiston ham istisno emas. Pokistonning Bosh razvedka xizmati Qurolli kuchlar tarkibiga kiradi va birinchi o'rinda oliy siyosiy rahbariyatga hisobot beradi. Ushbu xizmatlarning mintaqaviy xavfsizlik siyosati, milliy xavfsizlik va yadro qurollarining xavfsiz qo'riqlanishi kabi masalalarda roli katta bo'lishi mumkin.

### XULOSA

Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlab o'tganidek, mamlakat tarixi, diniy omil va jo'g'rofiy joylashuvidan kelib chiqqan holda ushbu davlatning tashqi siyosati o'zining beqarorligi bilan ajralib turadi va uning asosiy maqsadi davlatning hududiy birligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilganidir.

Joriy 2023 yil Pokiston uchun murakkab yil bo'ldi. Mamlakat vayronkor suv toshqinlari, sobiq bosh vazir Imron Xonga nisbatan suiqasd va beqaror iqtisodiy vaziyat tufayli kuchli ichki siyosiy-iqtisodiy va gumanitar inqirozni boshdan kechirmoqda. Vaziyatni Afg'oniston toliblari bilan chegaradagi to'qnashuvlar va TTP (Pokiston toliblar harakati) tomonidan amalga oshirilayotgan terroristik hujumlar yanada keskinlashtirmoqda. Albatta, bunday sharoitda hukumat mintaqaviy xavfsizlik siyosatini amalga oshirish bo'yicha o'z maqsadlariga yetishi murakkab masalaga aylanadi. Chunki ichki barqarorlikni ta'minlamay turib, yuqorida tilga olingan Milliy xavfsizlik siyosati konsepsiyasi bilan hukumat oldiga qo'ygan maqsadlar va mo'ljallar deklarativ shakldan uyoqqa o'ta olmasligi ehtimoli katta. Mintaqaviy xavfsizlik siyosatining huquqiy asoslari va konsepsiyalari qanchalik mukammal va keng qamrovli bo'lmasin, asosiy masala ushbu siyosatning ijrosi bo'lib qolaveradi.

Pokiston Respublikasi mintaqaviy siyosatining tashkiliy jihatlariga kelsak, ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tashqi siyosatni amalga oshirish apparati jahon davlatlarining va ayniqsa, Britaniya hamjamiyatiga kiruvchi davlatlarning shu kabi organlari tuzilishiga juda o'xshash. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar idorasi bilan tuzilishiga ko'ra solishtiradigan bo'lsak, umumiy jihatlar mavjud. Bitta farqni alohida ko'rsatib o'tish lozimki, bu Pokistonning tashqi ishlar bo'yicha davlat vaziri lavozimi bo'lib, bunday tajriba O'zbekistonda uchramaydi. Bu borada o'zaro tajriba almashish va xorij davlatlar amaliyotini o'rganish tadqiqotchilar uchun doimo ustuvor masala bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Louis D.Hayes, The Islamic State in the Post-Modern World. - University of Montana, USA. 2014, 159 bet.
2. Белокреницкий В. Внутренние и внешние детерминанты внешнеполитического процесса в Пакистане. Вестник МГИМО-университета, М., 2010г., №1, С. 177-178
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий сайти. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
4. Шаислам Ш. Акмалов, Современные узбекско-пакистанские отношения как важный элемент развития взаимосвязанности и сотрудничества Центральной и Южной Азии. Oriental Journal of History, Politics and Law, DOI: <https://doi.org/10.24833/2071-8160-2009-6-9-175-179>. С. 231-238.
5. Якубов И.Х., Нуриддинов У.К., Пакистан - Центральная Азия: проблемы и перспективы сотрудничества. Постсоветские исследования, Т.4. №8 (2021). С. 637-644.
6. Попадюк О.А. 17 Поправок конституции Пакистана. Вестник МГИМО-Университета. 2009;(6(9)):175-179. <https://doi.org/10.24833/2071-8160-2009-6-9-175-179>.
7. Antoine Levesques, Why Pakistan’s first national-security policy matters for future regional stability? - <https://www.iiss.org/online-analysis/online-analysis/2022/02/why-pakistans-first-national-security-policy-matters-for-future-regional-stability/>.
8. Kashoon Leeza, Pakistan’s National Security Policy: Opportunities and Contradictions. <https://southasianvoices.org/pakistans-national-security-policy-opportunities-and-contradictions/>.
9. <https://www.mofa.gov.pk/foreign-minister-of-pakistan/>
10. <https://na.gov.pk/en/index.php>